

O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "AYOL" OBRAZINING LINGVOMADANIY O'ZIGA XOS JIHATLARI (A. QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR", J. OSTENNING "G'URUR VA ANDISHA" ROMANLARI ASOSIDA)

K. Ikramova ¹

Annotatsiya:

Har bir davr o'zining ayol qahramonlarini o'zgacha tasvirlaydi. Insoniyatning butun tarixi insonlarning ayolni jamiyatda qanday ko'rganligi, qanday afsonalar uni o'rab olgan va uni yaratishga yordam berganligida aks etadi. Shuning uchun bu mavzu turli xalqlar adabiyotining abadiy mavzularidan biridir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi atoqli o'zbek yozuvchisi A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" va ingliz yozuvchisi Jeyn Ostenning "G'urur va Andisha" asarlarini tahlil qilish orqali o'zbek va ingliz adabiyotida aks ettirilgan "ayol obrazlari" qo'llaydigan tilning lingvomadaniy o'ziga xos til elementlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqotning kontseptsiyasi "ayol" va uning jamiyatdagi roli. Adabiyot va unda tasvirlangan ayol tili o'rtasidagi munosabatlar olimlar orasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar uchun qiziqarli mavzu bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: til madaniyati, ayol obrazi, tushuncha, o'ziga xoslik, adabiyot.

doi: <https://doi.org/10.2024/bb89qc91>

So'nggi paytlarda falsafa, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlarida insonni uning tabiati, tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi, mentaliteti va boshqalarni to'liqroq o'rganishga va ilmiy izlanishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari, inson tushunchasini anglashga va uni asarlar misolida tasvirlashga e'tibor yanada ortib bormoqda. Inson tasviri nafaqat tabiiy fanlar orqali tasvirlanadi balki milliy tillar tillar orqali mukammal yoritiladi. Tarixiy voqealar va personajlarni mohirona tasvirlash orqali mualliflar avlodlar o'rtasidagi ko'prikn saqlab qolishadi, bu esa o'quvchilarga o'tmishdagi hikoyalar ichidagi zamonaviy dolzarblikni va o'tkinchi daqiqalarda abadiy haqiqatlarni idrok etish imkonini beradi. Badiiy adabiyot tarixiy davrlarni aks ettiruvchi oyna vazifasini o'taydi. O'quvchilarga o'tgan davrlardagi odamlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va hissiyotlari haqida tushuncha beradi. Bu tarixiy-adabiy jarayonda ayol qiyofasi alohida o'rin tutadi, demak, mumtoz adabiy asarlar o'quvchilar bilan chuqur shaxsiy miqyosda muloqotda bo'lishi, vaqt cheklovidan oshib ketishi bilan cheksiz jozibadorlikka ega. (Maslova 2001). Ayol obrazlarini tasvirlash tarixiy va adabiy asarlarda alohida ahamiyatga ega. Har bir davr insoniyatning rivojlanayotgan in'ikoslari va uning shaxsiyatini shakllantiruvchi afsonalarni aks ettiruvchi o'ziga xos ayol arxetipi bilan tanishadi. Binobarin, bu mavzu insoniyat tarixining kengroq hikoyasini qamrab olgan holda barcha xalqlar adabiyotida saqlanib qolmoqda. Ayollarning fikrlash va his-tuyg'ularini o'rganish juda muhim, chunki u odamlarning ongi qanday ishlashini va dunyoga turli nuqtai nazardan qarashlarini tushunishga yordam beradi. Kitoblar va san'at ko'pincha jamiyat qanday o'zgarib borayotgani va odamlarning fikrlari qanday rivojlanayotganini ko'rsatadi. Adabiyotni o'rgansak, ayollarning his-tuyg'ulari va tajribalari haqida ko'proq bilib olamiz. Yozuvchilar

¹ Ikramova Kamola Shuhratovna, Samarkand Prezident maktabi Ingliz tili o'qituvchisi

til va uning elementlaridan ayollar hayotining chuqur qirralarini ko'rsatish uchun foydalanadilar. Bu ularning fikrlari va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Ushbu ilmiy izlanishdan asosiy maqsad qahramonlarning ongini tushunish, obraz va iboralarning yangicha talqinini topishdir. Maqola ingliz va o'zbek tillaridagi gender-belgilangan frazeologik birliklarning tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bu bizga ayol obrazlarini idrok etish milliy gender stereotiplari ta'sirida shakllangan, ular til madaniyatida o'z aksini topgan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Ingliz va o'zbek frazeologiyalarida ayol obrazini birinchi bo'lib o'rganish ayollarning jamiyatdagi o'rne va unga bo'gan munosabatni aniqlash, ingliz va o'zbek jamiyatida ayollarning mavqeini aniqlash imkonini berdi. Ingliz va o'zbek til madaniyatida ayol obrazining yaratilishida, frazeologizmlarning ahamiyati katta ekanligi va ularni ilmiy tahlil qilish biz kabi tadqiqotchilar uchun ilmiy izlanishga imkoniyat beradi. Maqolaning asosini adabiyotning turli davrlarida yozilgan mashhur o'zbek va ingliz romanlaridir. Ulardan biri eng mashhur ingliz yozuvchisi - Britaniya adabiyotining bosh qahramoni ayol obrazining muallifi: "G'urur va andisha" romanining asosiy qahramoni Elizabet Bennet - Jeyn Ostenning ayol qahramonidir. Bu badiiy qahramonning muvaffaqiyatining sababi (Ostenning o'z yozish qobiliyatidan tashqari) u dastlab yaxshi tarbiyalangan qiz g'oyasiga qarshi edi (Nuraliyeva 2023). O'sha davrdagi haqiqiy ingliz ayollaridan farqli o'laroq, ular oilasiga hamma narsada bo'ysunishlari, har doim o'zini tutishlari va hatto sovuqqon bo'lishi kerak edi, Elizabet esa aksincha jonli va tabiiy edi. Ayol obrazlarini qiyoslashda muhim manbalardan yana biri A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridir. Bu kitob o'zbek xalqining o'ziga xos tarixiy davrlarini aks ettiruvchi tiniq ko'zgudek. Bu asar o'zbek xalqining hayoti, an'analari, e'tiqodlari, turmush tarzi va boshqa ko'plab urf-odatlarini batafsil ko'rsatadi. Ushbu maqola uchun tadqiqotning analitik va sintaktik usullaridan foydalangan holda ikkilamchi manbalarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi ayol tushunchasini og'zaki ifodalovchi iboralarning qiyosiy tahlili maqolaning ushbu qismida ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, ingliz va o'zbek frazeologiyalarida "ayol" obrazining umumiy va o'ziga xos madaniy me'yorlar asosida ifodalanishidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida frazeologik birliklar yordamida ko'plab ayol obrazlari hissiyotlar bilan tasvirlangan. Kumush, Zaynab, O'zbekoyim, Oftobo'yim obrazlari muallif tomonidan juda ta'sirli tasvirlangan. Garchi bu ayol qahramonlarning kelib chiqishi bir xil ijtimoiy guruhdan bo'lsalar ham, ular o'zgacha farq va o'ziga xos xususiyatlarni namoyish etadilar. O'zbekoyim obrazini tahlil qiladigan bo'lsak, muallif o'z nutqida idiomalar yordamida uni o'ziga xos xususiyatlar bilan tasvirlamoqchi bo'lganini ko'ramiz. "O'zbek oyim uncha-muncha to'y azalarga" "kovshim ko'chada qolgan emas", deb bormas edi. Yani muallifning "O'zbekoyim uncha-muncha to'y azalarga bormas edi" degan axboroti-gapiga qahramon tilidan "kovshim ko'chada qolgan emas" iborasining qo'shilishi natijasida obraz tabiatidagi oqsuyaklik sifati yaqqol ko'ringan. Obraz tabiatidagi komik qirra ham aynan shu - "kovshim ko'chada qolgan emas" iborasi bilan bog'liq. Agar o'zbek oyim fikrini "ular mening tengim emas" shaklida ifoda etganida u bilan o'quvchi o'rtasida dramatik vaziyat yuzaga kelar edi. Fikrning ayni ibora vositasida ifoda etilishi esa o'quvchiga O'zbek oyimga nisbatan nafrat emas, komik tuyg'u uyg'otadi. Aslida O'zbek oyim esa qotib qolgan xarakter emas. Voqealar jarayonida, muhit ta'sirida mana shu o'jar ayol ongida, tabiatida o'zgarishlar sodir bo'ladi; chunonchi, bir vaqtlar orqavaroatdan «andi» sanalib yurgan Marg'ilonlik keliniga ilk bor duch kelganda mehri jo'shib, uni mahkam bag'riga bosadi, yuzidan o'pib, negadir yig'laydi, endi Zaynab qolib Kumush tomonga o'tib ketadi (Jo'raqulov 2020). G'urur va andisha" – metafora bilan ifodalangan idiomatik iboralarga boy roman. Misol uchun, Meri ular "yomonlik to'liqlinini to'xtatish" kerakligini

taklif qiladi (245-bet), bu erda o'quvchi bu haqiqiy okean to'lqini haqida emas, balki iboraning metaforik ishlatilishini tushunadi (Nuraliyeva 2023). Ayol obrazlarini tasvirlashda ikkala muallif ham til unsurlaridan asosan frazeologizmlardan unumli foydalanishga. Ayollarning ichki kechinmalari, ularning taqdir sinovlari oldida ko'rsatgan ulkan matonatli bardoshlari, ushu obrazlarni yillar davomida insonlar qalbida o'chmas iz qldirishga sababchi bo'lib kelmoqda va bu albatta yozuvchilarning til mahoratlarining mukammal ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Eshmatova Y. *Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini*. PhD, Dissertatsiya. B- 4.
- [2]. Jo'raqulov U. *Qodiriy va roman tafakkuri*. – Toshkent “Nurafshon business” 2020. B –93.
- [3]. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. — Chicago; L, 1980
- [4]. Nuraliyeva G. “Comapring some idiomatic expressions between English and Uzbek languages with the help of Jane Austen’s book “Pride and Prejudice” *Journal of universal science research*, 2023